



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*to'garak rahbari*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun*

**“JADIDLAR IZIDAN”**

**TO'GARAK**

**HUJJATLARI**

**To'garak a'zolari haqida ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to'liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona \_\_\_\_\_









**“TASDIQLAYMAN”**

MMIBDO‘ \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan “Jadidlar izidan” nomli to‘garagining  
ISH REJASI**

<b>No</b>	<b>Yillik ish reja mavzulari</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat	1		
2.	Abdulla Qodiriy	1		
3.	Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon	1		
4.	Munavvar qori Abdurashidxonov	1		
5.	Abdulla Avloniy	1		
6.	Fayzulla Xo‘jayev	1		
7.	Is‘hoqxon Ibrat	1		
8.	Mahmudxo‘ja Behbudiy	1		
9.	Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev	1		
10.	G‘ulom Zafariy	1		
11.	Ashurali Zohiriy	1		
12.	Sadriddin Ayniy	1		
13.	Hamza Hakimzoda Niyoziy	1		
14.	Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li	1		
15.	Muxtorjon Saidjonov	1		
16.	Usmon Xo‘ja	1		
17.	Abduraim Yusufzoda	1		
18.	Abduqodir Shakuriy	1		
19.	Ubaydulla Xo‘jaev	1		
20.	Rahmat Rafiqov	1		
21.	Abdulla Badriy	1		
22.	Said Ahmad Vasliy	1		
23.	To‘lagan Xo‘jamyorov	1		
24.	Lutfulla Olimiy	1		
25.	Jadidlar va matbuot			
26.	Ibrohim Davron	1		
27.	Vadud Mahmud	1		
28.	Jadid matbuoti sahifalarida turkistondagi siyosiy jarayonlar	1		
29.	Muhammad Komil Ismoil Devon	1		
30.	Muhammad Ikrom ibn Abdussalom	1		
31.	Rafiq Mo‘min	1		
32.	Sadr Ziyo	1		
33.	Ahmadjon Abdusaidov	1		
34.	Mirzo Sirojiddin	1		
35.	Abduvohid Burhonzoda Buxoriy	1		
36.	Mazhariddin Burhonov	1		
37.	Obidjon Abdulxoliq o‘g‘li Mahmudov	1		
38.	Dadamirza qori Shayxov	1		



39.	Nosirxon To‘ra	1		
40.	Abulqosim (Zahiriddin Qosimov)	1		
41.	Misboh Burhonov	1		
42.	Xayriniso Majidxonova	1		
43.	Muhiddinxo‘ja Nuriddinxo‘jayev	1		
44.	Karimbek Norbeklov	1		
45.	Sattor Jabbor	1		
46.	Maxmud Maxsudxo‘jayevich	1		
47.	Ilxomjon Inogomjonov	1		
48.	Mirzo Xayrulloxon	1		
49.	Muhammadjon Xoliqiy	1		
50.	Ahmadxon Xasanov	1		
51.	Nizomiddinxo‘ja Asomiddinxo‘ja	1		
52.	Sadriddinxo‘ja	1		
53.	Turkiston tarixida juda muhim o‘rin tutadigan vaqtli matbuot nashrlari	1		
54.	Mahmud Nazar	1		
55.	Madali Qoziyev	1		
56.	Tangriqul hoji Maqsudiy	1		
57.	Sayid Ahmad Naziriy	1		
58.	Abdullaxo‘jaev qozi Baqoxon	1		
59.	Haydarbek Abdusaidov	1		
60.	Nazirbek Abdujabborbekov	1		
61.	Ismoil Sadriy	1		
62.	Hoji Safo Jo‘rarayev	1		
63.	Haydar Xorazmiy	1		
64.	Said Muhammad	1		
65.	Niyoz Rajabzoda	1		
66.	Otajon Hoshim	1		
67.	Husaynxon Niyoziy	1		
68.	Qori Yo‘ldosh Po‘latov	1		

**Mavzu:** Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy maqsad:** to‘garak a‘zolari faolligi, mustaqilligini va jadidlarga bo‘lgan qiziqishini hamda so‘z boyligini o‘stirish, jadid ma‘rifatparvarlarining milliy ta‘lim, matbuot, adabiyot va san‘atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi haqida tushuncha berish, og‘zaki nutqini shakillantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmi va zehni bo‘lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg‘ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a‘zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:** Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat o‘zbek madaniyati tarixiga shoir va nosir, dramaturg va publitsist, tilshunos va adabiyotshunos, tarixchi va faylasuf, san‘atshunos va jamoat arbobi sifatida kirdi.

**Bolaligi**

Abdurauf Fitrat 1886-yili Buxoroda ziyoli oilasida tug‘ilgan. Dastlabki ta‘limni Buxoro, Istanbul madrasalari va dorilfununlarida oldi. U arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o‘zlashtirdi. Adibning otasi savdo ishlari bilan shug‘ullangan bo‘lib, 1918-yilgacha Qashqarda turib qolgan. U asosan, onasi Mustafo bibi (Bibijon) tarbiyasida bo‘lib, u tufayli Bedil, Navoiy, Fuzuliy, Zebuniso, Uvaysiy kabi ulkan shoirlarning g‘azallaridan xabardor bo‘ldi.

**Faoliyati**

Fitrat 1909-yili Turkiyaga o‘qishga borib, 1913-yilgacha Istanbul dorilfununida tahsil ko‘rdi. Turkiyada tashkil topgan “Buxoro ta‘limi maorifi” uyushmasida faollik ko‘rsatdi. Uning ilk to‘plami 1911-yilda “Sayha” (“Chorlov”) nomi bilan chop etildi. “Sayyohi hindi”, “Munozara” kabi asarlari ham shu yillarda Turkiyada nashr etildi. 1909-1913 yillarda Turkiya dorilfununida o‘qiyotganida jadidchilik g‘oyalari bilan tanishib, shu g‘oyalar bilan sug‘orilgan asarlar yozdi. U Turkiyadagi tahsili davrida o‘ziga Fitrat (zukko, dono, bilimdon) deb taxallus oldi. Fitrat 1917-yili fevral inqilobidan keyin “Hurriyat” gazetasini tashkil etdi, unda xalqni istiqloq uchun kurashga da‘vat etuvchi she‘r va maqolalarini e‘lon qildi. Uning “Hurriyat” gazetasida bosilgan “Yurt qayg‘usi” nomli she‘r va sochmalarida Turkistonning hurligi uchun kurashga bel bog‘lagan lirik qaxramonning “Men sen uchun tug‘ildim, sen uchun yasharman, sening uchun o‘larman, ey turkning muqaddas o‘chog‘i!” degan da‘vati baralla eshitiladi. Uning “Qon”, “Begijon”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘izg‘on”, “Abo Muslim”, “Hind ixtilochilari”, “Chin sevish” kabi dramalarida milliy mustaqillik uchun kurash mavzuyi tabiiy ifodasini topdi. 1922 yili nashr etilgan “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamida Cho‘lpon, Elbek she‘rlari bilan birga Fitratning she‘riy asarlari ham ilk bor o‘zbek o‘quvchisiga havola etildi. U mazkur to‘plamga kirgan “Mirrix yulduziga”, “Behbudiyning sag‘anasini izlab”, “Sharq”, “Shoir” kabi she‘rlarida millatparvar va vatanparvarlik pozitsiyasiga qat‘iy turganini yana bir bor namoyish etadi.

...Bilasanmi, shoir ishqning eng nozli,

Erka, injiq yovdusidir, turolmas –

Ma‘shuqidan ko‘rmagancha kulushli,

Marhamatli, chin sezguli bir ko‘mak,

Mana shudir uning uchun bor tilak.

Shoir

Tabiatdan sirli, teran ma‘nolar,

Tiriklik-chun ochiq, to‘g‘ri, chin yo‘llar

Izlar, topar, o‘zi uchun saqlamas

Unlarni,

Yoz gulining yaprog‘idan to‘qulg‘on


So‘zlar bilan o‘rab bizga topshurar.

Shoir ijodi va dunyoqarashidagi ana shu hol keyin ham susaymay, u “Abulfayzxon”, “Arslon” va “Vose‘ qo‘zg‘oloni”, “Shaytonning tangriga isoni” kabi dramalarini yaratdi. Uning “Qiyomat” kabi hikoyalarida diniy fanatizm ijtimoiy taraqqiyotga to‘siq bo‘lgan kuch sifatida fosh etiladi.

Fitrat yirik olim, adabiyotshunos sifatida ham bir qancha asarlar yaratdi. Jumladan, “Adabiyot qoidalari”, “Eski o‘zbek adabiyoti namunalari”, “Aruz haqida” kabi ilmiy kuzatuvlari o‘zbek adabiyotshunoslik fanining shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, uning Umar Xayyom, Firdavsiy, Navoiy, Bedil haqidagi tadqiqotlari adabiyot tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat etdi.

**IV. Mashg‘ulotni yakunlash:** to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchiliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

**V. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.



Sana: “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Abdulla Qodiriy

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy maqsad:** to‘garak a‘zolari faolligi, mustaqilligini va jadidlarga bo‘lgan qiziqishini hamda so‘z boyligini o‘stirish, jadid ma‘rifatparvarlarining milliy ta‘lim, matbuot, adabiyot va san‘atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi haqida tushuncha berish, og‘zaki nutqini shakllantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmi va zehni bo‘lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg‘ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a‘zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

10 aprel - yozuvchi Abdulla Qodiriy tavallud topgan kun. O‘zbek adabiyotining yirik vakilining hayoti va ijodi haqida batafsil materialimizda o‘qing.

Abdulla Qodiriy (Julqunboy)- yozuvchi, shoir, tarjimon, dramaturg, XX asr o‘zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri, o‘zbek romanchiligi asoschisi.

1894 yil 10-aprelda Toshkent shahrining Eskijo‘va mahallasida tavallud topgan. Adibning otasi Qodirbobo (1820-1924y) xon, beklar qo‘lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida Toshkent mudofaasida qatnashgan. Adib o‘z tarjimai holida shunday deydi: “Har holda bemavridroq bo‘lsa kerak, kambag‘al, bog‘bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada...tug‘ilg‘onman. Yoshim to‘qqiz-o‘nlariga borg‘ondan so‘ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o‘qib, keyin vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o‘n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo‘jayinim o‘zi savdogar kishi bo‘lub, o‘rischa yozuv-chizuv bilaturg‘on odamga muhtoj edi. Shu ta‘ma bo‘lsa kerak, meni o‘ris maktabga yubordi... 1912-yilda manfaktur bila savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so‘m barobariga prikazchik bo‘lub kirdim...”

1904-1906 yillarda bo‘lajak adib musulmon maktabida ta‘lim oladi.

1908-1912 yillarda rus tuzem maktabida,

1916-1917 yilda Abulqosim shayx madrasasida arab va fors tillaridan saboq oladi,

1924-1925 yillarda V.Ya Brusov nomidagi Moskva adabiy kurslarida o‘qiydi.

1918 yil- eski shahar oziqa qo‘mitasining sarkotibi

1919 yil - “Oziq ishlari” gazetasi bosh muharriri

1920 yil- Kasabalar sho‘rosining sarkotibi

1923-1926 yillarda “Mushtum” jurnali tashkilotchilaridan biri va tahrir hay‘ati a‘zosi sifatida faoliyat yuritgan.

Adib tarjimai holida adabiy faoliyatining boshlanishini shunday xotirlaydi: “Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadig‘on gazetalarni o‘qib, dunyoda gazeta degan gap borlig‘iga imon keltirdim. 1913-yilda o‘zbekcha “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyina” gazetalari chiqa boshlag‘och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg‘ondi.

Adibning ilk chiqishi “Sadoi Turkiston” gazetasi 1914-yili 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan “Yangi masjid va madrasa” nomli xabari bo‘ladi.

Adibning 1917-yili Oktabr to‘ntarishlaridan keyingi faoliyati asosan matbuot, ya‘ni publitsistika

bilan bog‘liq. U 1919-1925 yillar oralig‘ida 300 ta turli maqolalar, publitsistik asarlar yaratgan. Abdulla Qodiriy jurnalistik faoliyati haqida: “Xulosa — boshqalarning xizmati daftar bilan sobit bo‘lsa, mening xizmatlarim matbuot bilan ravshandir...” deydi.

Abdulla Qodiriy adib va shoir sifatida 1912-yillarda faoliyatini boshlagan. “To‘y” “Ahvolimiz”, “Millatimga”, “Fikr aylagil” kabi she‘rlari “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz” hikoyasi uning ilk asarlaridir. Qodiriy shunday xotirlaydi: “1913 yilda chiqqan "Padarkush" ta‘sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg‘animni o‘zim ham payqamay qoldim (1915 yilda). Yana shu yilda teatrlarda chiqib turg‘on hikoya va ro‘monlarga taqlidan "Juvonboz" otliq hikoyachani yozib noshir topilmag‘onidan, o‘zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg‘ondan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko‘ngilli bo‘lib yozildim...”.

Abdulla Qodiriy “Ahvolimiz” she‘rini 21 yoshida yozgan. She‘rda ko‘tarilgan muammo o‘zbek xalqi uchun hamon dolzarb. Adibning bu kabi she‘rlari millatparvarlik, ma‘rifatparvarlik ruhida yozilgan bo‘lib jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Muallif unda millatning zabun holatidan kuyunib so‘zlaydi, uyg‘onishga da‘vat etadi, fikrlashga undaydi.

**IV. Mashg‘ulotni yakunlash:** to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

**V. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



Sana: “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy maqsad:** to‘garak a‘zolari faolligi, mustaqilligini va jadidlarga bo‘lgan qiziqishini hamda so‘z boyligini o‘stirish, jadid ma‘rifatparvarlarining milliy ta‘lim, matbuot, adabiyot va san‘atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi haqida tushuncha berish, og‘zaki nutqini shakllantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmi va zehni bo‘lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg‘ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a‘zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim ephchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyg‘a vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Cho‘lpon – yangi o‘zbek she‘riyatining asoschilaridan biri, shoir, tarjimon, dramaturg va ma‘rifatchi.

**Bolalik davri**

O‘zbek xalqining XX asrda yetishib chiqqan ulug‘ siymolaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon 1897-yilda Andijonning Qatorterak mahallasida savdogar oilasida dunyoga kelgan.

Otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o‘g‘li (1874-1929) dastlab dehqonchilik, so‘ngra bazzozlik bilan bilan shug‘ullangan. Taniqli jurnalist va yozuvchi Mo‘minjon Muhammadjonov “Turmush urinishlari” kitobida qayd etishicha, Cho‘lponning otasi Sulaymonqul o‘z davrining yetuk ziyolisi, ma‘rifatparvar kishisi bo‘lgan. U “Rasvo” taxallusi bilan she‘rlar ham yozgan, devon yaratgan.

Cho‘lpon avval eski maktabda, so‘ngra madrasalar va rus-tuzem maktabida tahsil olib, arab, fors va rus tillarini mukammal o‘zlashtiradi. Mutolaa yuli bilan esa turk, nemis va ingliz tillarini o‘rganadi. Sharq va G‘arb ijtimoiy qarashlaridan oziqlanadi. Firdavsiy, Sa‘diy, Hofiz, Umar Hayyom, Alisher Navoiy kabi so‘z san‘atkorlari ijodini qunt bilan o‘rganadi.

Cho‘lpon dunyoqarashi va ijodining shakllanishiga asr boshlaridagi demokratik inqiloblar hamda jadidchilik harakati katta ta‘sir ko‘rsatgan.

**Cho‘lpon - publitsist**

Cho‘lponning ijodi 1913-1914 yillardan boshlangan bo‘lib, u avval “Qalandar”, “Mirzaqalandar”, “Andijonlik” va nihoyat “Cho‘lpon” (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qildi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida o‘z xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shadi. Cho‘lponning dastlabki asarlari “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” kabi mahalliy gazetalarda, shuningdek, Orenburgda chiqadigan “Sho‘ro” jurnalida nashr etiladi. Cho‘lponning “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Turkiston”, “Buxoro axbori” kabi gazetalardagi faoliyati ham uning ijodiy shakllanishida maktab bo‘lib xizmat etadi.

Cho‘lpon ocherknavis va publitsist sifatida ham barakali ijod qildi. Bu borada ayniqsa, uning “Adabiyot nadir”, “Muhtaram yozuvchilarimizga” kabi maqolalari adabiyotning maqsad va vazifalarini anglashda muhim rol uynaydi. U 1914-1917 yillarda yaratgan “Qurboni jaholat”, “Do‘xtir Muhammaddiyor” singari hikoyalari, “Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar” singari maqolalarida madaniyat va ma‘rifat targ‘ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. U Oktabr to‘ntarishidan keyingi 1920-1924 yillarda hayotda sodir bo‘layotgan xush va noxush o‘zgarishlarni qalamga oldi. “Yo‘lda bir kunduz”, “Yo‘lda bir kecha”, “Sharq poyezdi keldi”, “Sharq uyg‘ongan”, “Quturgan mustamlakachilar”, “Yo‘l esdaligi” singari o‘nlab ocherklari va publitsistik maqolalarida chorizm mustamlakachilari va mahalliy hokim sinf yetkazgan jabru jafolar yetmaganidek, fuqarolar urushi davrida ruy bergan fojialarni qoraladi.

**Cho‘lpon - shoir**

Cho‘lpon 1922-1926 yillarda o‘zining “Uyg‘onish”, (1922), “Buloqlar” (1923), “Tong sirlari”(1926), “Soz” (1935) kabi to‘rtta she‘riy to‘plamini nashr ettirdi. 30-yillarga kelib, “Jo‘r” to‘plamini tayyorladi. Ammo ”Soz” i chop etiladi, “Jo‘r” to‘plami qatag‘onlik tuzog‘iga ilinib qolib ketadi. Shoirning to‘plamlari orasida “Buloqlar” (1923) alohida ajralib turadi. To‘plam besh bo‘limdan iborat bo‘lib, ular “Sharq uchun”, “Sezgilar”, “Sevgi”, “Qora yullar” va “Qor quynida” deb nomlanadi. Shoirning o‘zi qayd etishicha, mazkur she‘riy guldasta “jahon” fotihlari changalida ezilib yotqon Sharq o‘lkalarga bag‘ishlangan. Jumladan, “Amalning o‘limi” she‘rida shunday misralarni o‘qiyimiz:

Ko‘nglimda yig‘lagan malaklar kimlar,

Sharqning onalari, juvonlarimi

Qarshimda ingragan bu jonlar kimlar,

Qullar o‘lkasining insonlarimi

Cho‘lpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriylar kabi qatag‘onlik davrining qurboni bo‘lgan. U 1937-yilning 14-iyulida qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktabrida otib tashlangan.

**IV. Mashg‘ulotni yakunlash:** to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchiliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

**V. Uyg‘a vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.



# veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

## *Zokirjon Admin bilan*

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.*

**77 listdan iborat "Jadidlar izidan" nomli 68 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To'lov uchun: **HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud***

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12. Psixolog hujjatlari**
- 13. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**